

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.K.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

ZIYAYEV DILSHOD ABDULLAYEVICH

**RUX METALLINI AJRATIB OLIHDA HALAQIT BERUVCHI
IONLARNI ANIQLASH UCHUN MODIFIKATSIYALANGAN
ELEKTROKIMYOVIY SENSORLARNI ISHLAB CHIQISH**

02.00.02 – Analitik kimyo

**KIMYO FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of dissertation abstract of doctor (DSc)

Ziyayev Dilshod Abdullayevich

Rux metallini ajratib olishda halaqit beruvchi ionlarni aniqlash uchun modifikatsiyalangan elektrokimyoviy sensorlarni ishlab chiqish..... 3

Зияев Дилшод Абдуллаевич

Разработка модифицированных электрохимических сенсоров для определения мешающих ионов при выделении металлического цинка..... 31

Ziyaev Dilshod

Development of modified electrochemical sensors for determining interfering ions in zinc metal extraction 61

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 65

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.K.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

ZIYAYEV DILSHOD ABDULLAYEVICH

**RUX METALLINI AJRATIB OLIHDA XALAQIT BERUVCHI
IONLARNI ANIQLASH UCHUN MODIFIKATSIYALANGAN
ELEKTROKIMYOVIY SENSORLARNI ISHLAB CHIQISH**

02.00.02 – Analitik kimyo

**KIMYO FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.DSc/K120 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (ik-kimyo.nuu.uz) va “ZiyoNET” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Smanova Zulayho Asanaliyevna
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Sadikov Ilhom Ismoilovich
texnika fanlari doktori, professor, akademik
Abduraxmonov Ergashboy
kimyo fanlari doktori, professor
Usmonova Xilola Ummataliyevna
kimyo fanlari doktori, professor
Umumiy va noorganik kimyo instituti

Yetakchi tashkilot:

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.K.01.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil “15” fevral soat 10⁰⁰ daqi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246-07-88; (+99871) 227-12-24, faks: (+99871) 246-53-21; (+99871) 246-02-24 e-mail: ilmiy_kengash@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (10 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil:100174, Toshkent sh, Universitet ko‘chasi, 4-uy.Tel.:+99871) 246-07-88; (+99871) 227-12-24, faks: (+99871) 246-53-21; (+99871) 246-02-24.

Dissertatsiyaning avtoreferati 2025 yil “4” fevralda tarqatildi.
(2025 yil “03” fevralda 1 raqamli reestr bayonnomasi).

Dal

Daminova Sh.Sh.

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash rais o‘rinbosari, k.f.d., prof.



N.X.Qutlimurotova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi
k.f.d., prof.

B.N.Babayev

B.N.Babayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, k.f.d., prof.

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbigi va zarurati. Bugungi kunda dunyoda sof rux metali sanoat va texnologiyaning barcha tarmoqlarida keng qo'llanilmoqda. Sof rux metali ishlab chiqarishda, rux elektroliti tarkibidagi selen, tellur, kadmiy, mis, surma ionlarining miqdori muhim o'rin tutadi. Elektrolit tarkibidagi kadmiy, mis, surma, selen va tellur ionlari elektrolizga uchrab, rux metalining ustiga o'tirishi natijasida rux katodining sifati buzilib, metallning tan narxi kamayishiga olib keladi. Shu sababli, kadmiy, mis, surma, selen va tellur ionlarini rux elektroliti tarkibidan ajratish va aniqlashning yuqori sezgir, tanlab ta'sir etuvchan usullarini yaratish amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonning yetakchi olimlari tomonidan rux elektroliti tarkibidagi kadmiy, mis, surma, selen va tellur ionlarining ultramikromiqdorlarini ajratish va konsentrlash, hamda aniqlash bo'yicha turli xil organik reagentlar bilan modifikatsiyalangan elektrodlar yaratish bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bunda modifikatsiyalashda turli xil funksional guruh tutgan organik reagentlarni qo'llash, metallarni aniqlashning sezgirligi, tezkorligi va tanlab ta'sir etuvchanligini oshirishda intermetall birikmalarni qo'llab, ajratish-konsentrlash va aniqlashning mexanizmlarini o'rganish, hamda fizik-kimyoviy konstantalarni aniqlash muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda rux elektroliti tarkibidagi kadmiy, mis, surma, selen va tellur ionlarini ajratish va konsentrlash bo'yicha tanlab cho'kishni qo'llash hamda eritmada qolgan metall ionlarini adsorbsion inversion-voltamperometrik (AIV) usulda aniqlashda modifikatsiyalangan elektrodni qo'llash usullarini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Olib borilayotgan dasturiy chora-tadbirlar asosida mazkur yo'nalishda ma'lum yutuqlarga erishilgan, ayniqsa rux elektroliti tarkibidagi kadmiy, mi, surma, selen va tellur ionlarini sifat va miqdoriy aniqlash bo'yicha keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi bo'yicha "milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta'minlashda sanoat, ilm-fan, ishlab-chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, maxaliy xomashyo resurslarini modernizatsiya qilish asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish" vazifalari belgilab berilgan. Respublikamizda Olmaliq kon metallurgiya kombinati rux zavodi rux elektroliti tarkibidagi kadmiy, mis, surma, selen va tellur ionlarini ajratish va konsentrlash, hamda aniqlash uchun zamonaviy, yanada ishonchli, tezkor va arzon AIV usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yilida amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida"gi, 2022-yil 28- yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni, 2018-yil 25- oktyabrdagi PQ-3983 son "O'zbekiston Respublikasi kimyo sanoatini rivojlantirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2019-yil 3- apreldagi PQ-4256 son "Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 30-sentyabrdagi PQ-3954 "Olmaliq KMK AJ ishlab chiqarish quvvatlarini

rekonstruksiya qilish va barqarorlashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. Kimyo, kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Diisertasiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi¹. Og'ir va zaxarli metallarni aniqlashda ular bilan tez ta'sirlashadigan maxsus va selektiv organik reagentlar orqali modifikatsiyalangan elektrokimyoviy sensorlardan foydalanib yangi, arzon elektrokimyoviy aniqlash usullarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida va oliy ta'lim muassalarida, jumladan: International Atomic Energy Agency Spanish Nuclear Safety Council (Ispaniya), Radionuclide department Sudney University (Avstraliya), International Atomic Energy Agency Vienna The Royal Society of chemistry (Ukraina) Guidelines for Canadian Drinking Water Quality Ottawa (Ohtarия), Korean Institute of chemical Engineers, Seoul (Koreya), Uniniversity of Torino (Italiya), University of Cincinnati (AQSH); Chinese Research Academy of Environmental Sciences, Beijing (Xitoy), Faculty of Engineering, Department of Chemical Engineering (Turkiya), Rafael Agladze Institute of Inorganic Chemistry and Electrochemistry (Gruziya), Chemical and Biomedical Engineering Technical University (Hindiston), Faculty of Mikrobiology and Biotechnology Bangalore (Hindiston), Kiyev Milliy universitetida (Ukraina), Moskva Davlat universitetida, Rossiya kimyoviy-texnologiya universitetida, Tomsk politexnika universitetida (Rossiya); O'zbekiston Milliy universitetida, Samarqand Davlat universitetida (O'zbekiston) olib borilmoqda.

Og'ir va zaharli metallarining mikromiqdorlarini aniqlashga oid jahonda qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: metallarning oz miqdorlarini potensiometrlik titrlash usuli yaratilgan (Rossiya, Angliya), kadmiy, mis, surma, selen, tellur ionlari turli metallar tutgan materiallardan ekspress analiz usulida ajratib olingan (Rossiya, Germaniya, AQSh), AES-ISP, induktiv-bog'langan plazmali mass-spektroskopiya, atom-absorbtsion spektroskopiya usullarida qotishmalar, rudalar va minerallar tarkibidan kadmiy va mis aniqlangan, selen, tellur va boshqa metallarning mikromiqdorlari AES usulida ishlab chiqilgan (AQSh, Rossiya, Angliya), standart namunalarda tarkibidan og'ir va zaxarli metallarini aniqlashning rentgenofluoressent usuli yaratilgan (Rossiya), rudalarning element tarkibini emission aniqlash usuli ishlab chiqilgan (Italiya, AQSh), indikatorli elektrodlar yuzasida kadmiy, mis, ruh metall ionlarini sorbsiyalashga asoslangan anodli inversion voltamperometrik usuli yaratilgan (O'zbekiston), og'ir zaharli metallarni rudalar, shlamlar, texnologik suvlar tarkibidan ajratishning sorbsion konsentrlash usuli ishlab chiqilgan (Uzbekistan).

2 Диссертация мавзуси бўйича хорижий илмий-тадқиқотлар шарҳи <http://www.scholar.google.com>, <http://www.sciencedirect.com>. ва бошқа манбаалар материаллари асосида тайёрланган

Dunyoda rangli metallarni qayta ishlash usullaridan samarali foydalanish ko‘rsatkichlarini oshirish maqsadida bir qator ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda, jumladan, rangli metallarni tog‘ jinslari va rudalardan ajratib olishning yanada ishonchli, tezkor va arzon usullarini ishlab chiqish; ularni mineral xom ashyodan to‘liq va kompleks ravishda qazib olish; kimyoviy, fizik-kimyoviy usullar yordamida aniqlash va taqqoslash; metallokomplekslarning shakllanish mexanizmlarini yaratish, sanoat ob'ektlari va boshqa foydali qazilmalarning oqava suvlaridagi og‘ir va zaharli metallarning miqdorini nazorat qilish hamda bir qator ekologik muammolarni hal etish.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Rux elektroliti tarkibidagi kadmiy, mis, surma, rux, selen va tellur ionlarini ajratish (tanlab cho‘ktirish) va konsentrlash, hamda aniqlashda modifikatsiyalangan elektrodni qo‘llab voltamperometrik analiz usullarini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlarni jahon ilmiy markazlarida jadal olib borilmoqda. Dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida selen va tellur ionlarini aniqlash ishlari elektrokimyoviy, optik va fizik usullarga bag‘ishlangan. Xorijlik olimlardan D.L.F.Silva, M.A.P. Da Costa, W.N.L. Dos Santos, M. Mathew, B. Narayana, M. Mathew, B. Narayana, P. Xia, M. Wang, L.J. Lian, D. Yildiz, L.V. Gudzenko, T.V. Sheina, K. Kalaitzidou, E. Bidiou, A.J. Zouboulis, J. Cao, Y. Cheng, B. Xu, J. Yang, L. Hong, Y.J. Xu, H.Darbinyan, H.J. Khachatryan, K. Karaś, A. Ziola-Frankowska, M.J. Frankowski, M. Llaver, A. Chapana, R.J. Wuilloud, K. Żarczyńska, P. Sobiyech, D. Tobolski, E. Evstafeva, N. Golubkina, Y.J. Boyarinceva, Z. Chen, Q. Shi, W.J. Wang, O. Oleshko, V. Bityutsky, O. Melnichenko, B. Izgi, S. Gucer, R.J. Jaćimović, J. Ali, M. Tuzen, X.J. Feng Y. Kryzhova, M. Antonuk, V. Stabnikov aynan mazkur yo‘nalishda izlanishlar olib borganlar.

O‘zbekistonda kimyoviy sensorlar va aniqlashning test metodlarini ishlab chiqish bilan O‘zbekistonda analitik kimyo maktabining asoschisi akademik Sh.T.Tolipov, A.M.Gevorgyan, E.Abduraxmanov, B.D.Nasimov, I.P.Shesterova, N.T.Turabov, Z.A.Smanovalar ilmiy maktablari faoliyat olib bormoqda. Ular tomonidan organik reagentlar bilan modifikatsiyalangan ko‘mir–pastali elektrodlar hamda immobillangan tolali sensorlar yordamida og‘ir va zaharli metall ionlarini aniqlash, gaz – sezgir termokimyoviy sensorlar yordamida zaharli gazlarni aniqlashlar amalga oshirilgan. Ammo, ko‘mir-pastali elektrodni sezgirligini oshirish maqsadida, ularning yuzasini metallar bilan modifikatsiyalash, elektrodning ishlash intervalini kengaytirish, ularni selen va tellur ionlarining ultramikromiqdorlarini aniqlashga qo‘llash tadqiq qilinmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi O‘zbekiston Milliy universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining № F-7-48 “Polimer materiallari yuzasida immobilizatsiya qilingan metall nanozarchalarining fazaviy o‘zgarishi mexanizmini o‘rganish”(2017-2020-y.), № ПЗ-20171024319 «Og‘ir zaharli metallarni aniqlash uchun elektrokimyoviy sensorlarni ishlab chiqish» (2018-2020-y.)mavzusidagi fundamental va amaliy loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Rux elektrolitlari va tabiiy obyektlar tarkibidan kadmiy, mis, surma, selen va tellur ionlarining aniqlash uchun modifikatsiyalangan elektrokimyoviy sensorlarni (MES) ishlab chiqish

Tadqiqotning vazifalari:

Rux elektroliti tarkibini sifat va miqdoriy analiz qilish;

sanoat eritmalari va aralashmalarda mis (Cu^{2+}), rux (Zn^{2+}), kadmiy (Cd^{2+}), selen (Se^{4+}), tellur (Te^{2+}), surma (Sb^{5+}) ionlarini aniqlashda, ES sezgirliги va tanlovchanligini oshirish uchun elektrodلarni modifikatsiya qilish usullarini ishlab chiqish va optimallashtirish;

modifikatsiyalangan ES yordamida metall ionlarini aniqlashning optimal sharoitlarni: muhit pH, fon elektrolitning tabiati va konsentratsiyasi, yig'ilish potentsiali, elektrokimyoviy sensorغا beriladigan tok kuchi va aniqlanadigan ionning elektrokimyoviy sensorning yuzasida to'planish vaqtini tanlash;

elektrokimyoviy sensorلarni modifikatsiyalanish ximizmini turli analitik usullar yordamida skanerlash elektron mikroskopiyasi, kvant-kimyoviy hisoblashlar va IQ-spektroskopiya orqali aniqlash;

modifikatsiyalangan elektrodلar bilan metall ionlarining bog'lanish mexanizmini siklik voltamperometrik, Lingeyn usullarida, ionلarning ayni sharoitlardagi yarim to'lqin potentsiallarini, elektrod yuzasida ishtirok etayotgan elektronلar sonini aniqlash hamda tanlab ta'sir etuvchanlikni baholash;

ishlab chiqilgan usulning analitik va metrologik xususiyatlarini aniqlash va metall ionlarini aniqlashning quyi aniqlash chegaralarini topish, hamda usulni tabiiy obyektlar analiziga qo'llash;

tadqiq qilingan ionلarni aniqlash bo'yicha ishlab chiqilgan usullarni sanoat amaliyotiga joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarida zararli aralashmalar miqdorini kamaytirish, texnologik parametrlarni saqlash va samaradorlikni oshirish.

Tadqiqotning obyekti – atrof-muhitning turli xil obyektlari va sanoat materiallari, shuningdek mis elektrolitlarida kadmiy, surma, selen va tellur ionlarini aniqlash uchun sezgir va selektiv elektrokimyoviy inversion-voltamperometrik usullarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning predmeti – kadmiy, mis, surma, rux, selen va tellur ionlarini aniqlash uchun inversion-voltamperometriyada qo'llashga mo'jallangan modifikatsiyalangan elektro-kimyoviy sensorلarni (MES) ishlab chiqish va tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning usullari sifatida AIV analiz usuli, rentgen fluoressent, IQ spektroskopiyasi, ISP-AES (induktiv-bog'langan plazmalı atom-emission spektroskopiya) va olingan ma'lumotلarni hisoblash uchun matematik statistika usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Rux elektroliti tarkibidagi rux elektroliziga selen va tellur ionlarini halaqit berishi aniqlangan va ularni $\text{Fe}(\text{OH})_3$ bilan ammiakli muhitda birgalashib cho'ktirish orqali bartaraf etilgan;

grafit asosidagi elektrokimyoviy sensorni *ex situ* usuli bo'yicha 1-(2-sulfo-4-nitrofenil-6 gidrokso)-3-[4-(4-sulfofenilazo)fenil] triazenning ikki natriy

almashingan tuzi (kadion), alizarin qizili S, pirokatexin binafshasi bilan kadmiy, rux, mis, *in situ* usuli bo'yicha malahit yashili, aminobenzidin, gidrozin sulfat bilan modifikatsiyalab, surma, selen va tellur ionlarini aniqlashda qo'llanilgan.

ilk bor grafit asosidagi elektrokimyoviy sensorni simob va qo'rg'oshin bilan intermetall qatlam (Pb/Hg/ES) hosil qilib, selen(IV) ionini, tellur(II) ionini esa simob va kadmiy qatlamini (Cd/Hg/ES) hosil qilish orqali anodli AIV aniqlash usuli ishlab chiqilgan;

organik reagentlar bilan MES yordamida Cu, Zn, Cd, Se, Te va Sb ionlarini AIV usulning maqbul sharoitlari: Cu(II) uchun universal bufer eritmasining pH=5,0-5,5, fon elektrolit 1,4 M KNO₃, elektrod yuzasiga yig'ilish vaqti 190 s.; Zn uchun universal bufer eritmasining pH=4,0-5,0, fon elektrolit 1,0 M KCl, elektrod yuzasiga yig'ilish vaqti 160 s.; Cd uchun pH=10-11, fon elektrolit 1,0 M NH₄Cl, elektrod yuzasiga yig'ilish vaqti 160 s., ga teng ekanligi tanlangan hamda modifikatsiyalanmagan sensorga nisbatan quyi aniqlash chegarasi 5 marta kamaytirilgan;

intermetall qatlam hosil qilish orqali Se(IV) va Te(II) ionlarini aniqlashning maqbul sharoitlari: Se(IV) ion uchun universal bufer eritmasining pH=4,0-5,0, fon elektrolit 0,7 M CH₃COONa, elektrod yuzasiga yig'ilish vaqti 150 s., Te(II) uchun universal bufer eritmasining pH=5,0-6,0, fon elektrolit 0,8 M (NH₄)₂SO₄, elektrod yuzasiga yig'ilish vaqti 180 s. tanlangan hamda rux ionining halaqit berish darajasi Se(IV) va Te(II) ionlarining potentsiallarini musbat sohaga siljitish orqali aniqlashning tanlab ta'sir etuvchanlik oshirilgan;

grafit asosidagi kadion, piroketaxin binafshasi va alizarin qizil S reagentlari bilan modifikatsiyalangan ES yordamida Cd, Cu va Zn ionlarini aniqlash kompleks hosil qilishi reaksiyasi asosida borishi siklik voltamperometriya usulda formal potentsiallari: Zn bilan alizarin qizil S kompleksi uchun -220 mV, Cd(II) bilan kadion kompleksi uchun 140 mV, Cu bilan piroketaxin binafshasi kompleksi uchun 70 mV ekanligi bilan tasdiqlangan hamda sensor yuzasida metal ionlarining mustahkam bog'langanligi yarim to'lqin potentsiali qiymatining musbat sohaga siljishi bilan isbotlangan;

Se(IV) va Te(II) ionlarini intermetall qatlamga ega bo'lgan sensor yuzasida aniqlashning yarim to'lqin potentsiallari -600 mV va -400 mVga tengligi hamda elektrod yuzasida ishtirok etayotgan elektronlar soni selen ion uchun 4 va tellur ion uchun 2 ga tengligi, Lingeyn usulida diffuzion tokning logarifmik qiymatining yarim to'lqin potentsialiga bog'ligidan topilgan;

elektrodlarga *ex situ* usulida organik reagentlarni modifikatsiyalashdan hosil qilingan elektrodlar bilan metal ionlarini aniqlashda bufer eritmalarning qo'llanilishi vodorod ionini reagentlarni faol holatga o'tkazishi, adsorbsion modifikatsiyalash usulida esa Pb/Hg/ES va Cd/Hg/ES qatlamli sensorlarning selen va tellur ionlarini aniqlashda fon elektroltlarni qo'llash eritmaning qarshiligini kamaytirishi hamda metallarning intermetallik xossasini oshirishi ion kuchi ta'sirida borish Shemyakin qonuniyatiga mos kelishi aniqlangan;

ishlab chiqilgan mis, selen, tellur, kadmiy, surma va rux ionlarini aniqlashning AIV usulining quyi aniqlash chegarasi Cu²⁺ uchun 0,4 mkg/l, Zn²⁺ uchun 10 mkg/l,

Cd^{2+} uchun 3,0 mkg/l, Se^{4+} uchun 7,0 mkg/l, Te^{2+} uchun 5,0 mkg/l va Sb^{5+} uchun 2,0 mkg/l tashkil qildi va olingan natijalarning aniqligi korrelyatsiya koeffitsienti 1 ga yaqinligi bilan izohlangan. Kadmiy(II), mis(II), surma(V), rux, selen(IV) va tellur(II) ionlarini aniqlashga halaqit beruvchi kationlarining ta'siri kamaytirilgan hamda ishlab chiqilgan usulning nisbiy standart chetlanishi 0,113 dan oshmasligi isbotlangan;

modifikatsiyalangan kadion, alizarin qizil S, pirokatexin binafsha, malaxit yashil, aminobenzidin va sulfat kislota gidrazin yordamida ishlab chiqilgan AIV usuli mis, rux, selen, tellur, kadmiy va surma ionlarini aniqlash imkonini berdi. Ushbu usul AIV usulining metrologik xususiyatlarini yaxshilashga, C_{min} darajasini ikki darajaga pasaytirishga, sezgirlikni to'rt barobar oshirishga va tezkorlikni ikki barobar oshirishga imkon berdi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: tabiiy ob'ektlar tarkibidan og'ir zaharli metall ionlariga kiruvchi kadmiy, mis, rux, surma kabi ionlarini aniqlashda kadion, alizarin qizili S, pirokatexin binafshasi, malaxit yashili bilan ex situ usulida modifikatsiyalangan ES qo'llash orqali yuqori selektivlikka ega AIV usuli ishlab chiqilgan;

intermetallik xususiyatidan foydalanib selen va tellur ionlarini aniqlashda elektrokimyoviy sensorni simob, qo'rg'oshin va kadmiy bilan modifikatsiyalab rux elektroliti, tabiiy obyektlari tarkibidan 0,10 mkg/l gacha aniqlash imkoniyatini bergan;

olmaliq kon metallurgiya kombinati rux zavodida selen va tellur ionlarini rux elektroliti tarkibidan temir gidroksid yordamida gidrolitik tozalash ya'ni tanlab cho'ktirish imkoni topilgan.

modifikatsiyalangan ES yordamida ichimlik suvi, chiqindi suvlar, shuningdek, sanoat xom ashyolari (chiqindi, ruda, konsentratlar va boshqalar) tarkibidagi mis, kadmiy, surma, tellur va selen ionlarini tahlil qilish uchun inversion-voltamperometrik usul ishlab chiqilgan. Ushbu usul aniqlanayotgan ionlarning miqdorini aniqlash imkonini bergan, shuningdek, sensorlarni o'zgartirish uchun organik reagentlardan foydalanish orqali tahlilning selektivligini va metall ionlarining nanokonsentratsiyasini aniqlangan. Ishlab chiqilgan usul asosida mis, kadmiy, surma, selen va tellur ionlarini voltamperometrik usulda aniqlash "Elektrokimyoviy zavodi" qo'shma korxonasi "Markaziy laboratoriya" ning amaliy faoliyatiga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi olingan natijalarni «kiritildi-topildi», «standart namunalari», «qo'shimchalar qo'shish», logarifmik analiz, kvant kimyoviy hisoblashlar va boshqa usullar bilan tasdiqlanganligi, atrof muxit ob'ektlarining real namunalari DavST usullari bilan solishtirilganligi va matematik statistik usullarida qayta ishlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, kadmiy, mis, rux ionlarini kadion, alizarin qizili S, pirokatexin binafshasini modifikator sifatida, hamda selen va tellurni aniqligini oshirish uchun Pb/Hg/ES bilan Cd/Hg/ES modifikatsiyalash, tanlangan optimal

sharoitlarda yarim to'liq potentsiallarini aniqlash orqali reaksiya mexanizmini aniqlash bilan izohlanadi;

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, rux elektroliti tarkibidagi kadmiy, mis, surma, selen va tellur ionlarini tanlab cho'ktirish orqali, sof rux ishlab chiqarishning unumdorligi oshirilgali hamda kadmiy, mis, rux, surma, selen va tellur ionlarini texnologik va tabiiy obyektlar tarkibidan ultramikromiqdorgacha aniqlash mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. Ishlab chiqilgan usul kadmiy, mis, rux, surma, selen va tellur ionlarini ajratish va konsentrlash hamda aniqlashning AIV usullari natijalari asosida:

Takomillashtirilgan selen va tellur ionlarini tanlab cho'ktirish usuli Olmaliq kon metallurgiya kombinati AJ amaliyotiga joriy etilgan (Olmaliq kon metallurgiya kombinati AJning 2022-yil 4-martdagi №0090-sonli ma'lumotnomasi). Natijada selen va tellurni tanlab cho'ktirish orqali, sof rux metali ajratib olish imkonini bergan;

Ishlab chiqilgan mis, surma, selen va tellur ionlarini AIV aniqlash usuli Olmaliq kon metallurgiya kombinati AJ ruh zavodi laboratoriyasida amaliyotga joriy etilgan (Olmaliq kon metallurgiya kombinatining 2022-yil 18-fevraldagi № 244-sonli ma'lumotnomasi). Natijada mis, surma, selen va tellur ionlarini yuqori sezgirlikda aniqlash imkonini bergan;

Ishlab chiqilgan mis, kadmiy, surma, selen va tellur ionlarini AIV aniqlash usuli O'zbekiston Respublikasi "Elektrokimyoviy zavod" qo'shma korxonasining "Markaziy laboratoriyasi"da joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi "Elektrokimyoviy zavod" qo'shma korxonasi AJ ning 2024-yil №24/01-02-10/0240 ma'lumotnomasi). Natijada ichimlik, oqava, texnologik suv va sanoat xomashyolari tarkibidan mis, kadmiy, surma, selen va tellur ionlarini yuqori sezgirlikda aniqlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqotning natijalari 13 ta xalqaro va Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarida 16 ta, shu jumladan 8 ta Respublika va 8 ta xalqaro jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 224 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyigi asoslangan, maqsad va vazifalar, tadqiqot obyektlari va predmetlari berilgan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati

ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etish istiqbollari bo'yicha xulosa qilingan hamda chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kadmiy, rux, mis, selen va tellurni fizik-kimyoviy aniqlash”** birinchi bobida kadmiy, mis, rux, selen va tellur ionlarini turli modifikatsiyalangan reagentlar yordamida elektrokimyoviy tahlil qilish sohasidagi jahon tadqiqotlari haqida umumiy ma'lumot berilgan. Elektrokimyoviy va boshqa analitik jarayonlarni o'rganish uchun ishlatiladigan instrumental va matematik usullar tavsiflanadi. ES o'zgartirishning turli usullarini ularning samaradorligini tanqidiy baholash bilan qiyosiy tahlil qilish amalga oshirildi. Iqtisodiyotda oqava suvlar, yer usti suvlari va boshqa sanoat materiallarini tahlil qilishda modifikatsiyalangan elektrokimyoviy sensorlar (MES) qanchalik qo'llanilishi va ulardan xavfli moddalarni tahliliy maqsadlarda oldindan konsentratsiyalash uchun sensorlar sifatida foydalanish imkoniyatlari kam baholanib tugallanmagan. Adabiyotlar tahlilidan olingan bu xulosa mavzuni oldindan belgilash va tadqiqot dasturini tuzish imkonini berdi.

Dissertatsiyaning **“Kadmiy, rux, mis, selen va tellurni aniqlashda foydalaniladigan reagentlar, asboblari va usullar”** deb nomlangan ikkinchi bo'limida tadqiqotda qo'llaniladigan o'lchov asboblari, kimyoviy reagentlar, yordamchi uskunalari ko'rsatilgan. Tahlilni o'tkazish uchun ishlatiladigan materiallar, jihozlar va texnikalar tavsiflanadi. Namuna tayyorlash va namunani mineralizatsiya qilish xususiyatlari, shuningdek ularning o'rganilayotgan namunalar tahlili natijalariga ta'siri ko'rib chiqiladi. Kimyoviy reagentlarni qo'llash va ularning tuzlaridan standart eritmalar tayyorlash, shuningdek, bu eritmalaridagi metall ionlarining aniq konsentratsiyasini o'rnatish jarayoni haqida ma'lumot beriladi.


Dissertatsiya ishining **“Turli organik reagentlar bilan modifikatsiyalangan elektrokimyoviy sensorlarni yaratish”** deb nomlangan uchinchi bo'limida MES ishlab chiqish va tadqiq etishning asosiy natijalari hamda ularni AIV analitik qo'llash batafsil yoritilgan. MES kimyoviy mexanizmlari o'rganilib, kadmiy, mis, rux, selen va tellur ionlarini aniqlash uchun optimal sharoitlar tanlab olindi.

O'rganilayotgan metallarni tahlil qilishning sezgir va selektiv usullarini ishlab chiqish uchun namuna komponentlarining tarkibi va tizimda sodir bo'ladigan texnologik jarayonlarning xususiyatlarini hisobga olgan holda ES (*in situ* va *ex situ*) modifikatsiyalashning turli xil yondashuvlari qo'llanildi. Surma, selen va tellurni aniqlash uchun elektrodni *in situ* modifikatsiya qilishda ichki eritmaga modifikatorlar qo'shildi: surma uchun - malaxit yashil, selen va tellur uchun - aminobenzidin. Ushbu qo'shimchalar eritmada qiyin eriydigan birikmalar hosil bo'lishiga yordam berdi. Kadmiy, mis va rux ionlarini tahlil qilish uchun fizik-kimyoviy usullardan foydalangan holda grafit elektrodga modifikatorlarni qo'llash orqali modifikatsiya qilingan *ex situ* usuli qo'llanildi. Kadmiy uchun kadion, mis uchun binafsha katexol, sink uchun alizarin qizil ishlatilgan. Tellur-kadmiy-simob va selen-qo'rg'oshin-simob kabi intermetallik birikmalarni hosil qilish uchun sirt modifikatsiyasini o'z ichiga olgan selen va tellur ionlarini aniqlash uchun boshqa *ex situ* texnikasi qo'llanildi.

MES tayyorlash texnikasi har bir komponentni - grafit, bog'lovchi va modifikatorni analitik tarozi yordamida aniq tortishni o'z ichiga oladi. Dissertatsiyada modifikatsiyalangan elektrodlarni ishlab chiqish va tadqiq etishning asosiy natijalari, shuningdek, ularni AIV qo'llash batafsil bayon etilgan. Elektrodlarni o'zgartirishning turli xil variantlari o'rganildi va o'rganilayotgan ionlarni aniq aniqlash uchun sharoitlar optimallashtirildi.

MES tayyorlash texnikasi har bir komponentni-grafit, bog'lovchi va modifikatorni analitik tarozi yordamida aniq tortishni o'z ichiga oladi. Dissertatsiyada modifikatsiyalangan elektrodlarni ishlab chiqib qo'llash batafsil bayon etilgan. Elektrodlarni modifikatsiyalash va tadqiq etishning asosiy natijalari, shuningdek, ularni IV urli xil usullarda o'rganildi va o'rganilayotgan ionlarni tog'ri aniqlash uchun sharoitlar optimallashtirildi. Dastavval kadmiyning kation bilan, misning pirokatexol binafshasi bilan, ruxni alizarin S bilan komplekslari hosil bo'lishini *ex situ* usulida tayyorlangan ES yuzasida o'rgandik.

Tadqiqotda foydalanilgan organik reagentlarning elektron bulutli zichligi kvant kimyoviy usullari yordamida hisoblab chiqilgan va natijalar 1-rasmda keltirilgan.




1-rasm. Gauss 09 dasturidan foydalangan holda reagentlar uchun kvant kimyoviy hisoblashlar natijalari:

Zaryadlar taqsimoti 1-pirokatexin binafshasi; 3-alizarin qizili S; 5-kadion;
HOMO-LUMO qiymatlari 2-pirokatexin binafshasi; 4-alizarin qizili S; 6-kadion.


Hisoblash natijalariga asoslanib, elektron bulutning zichligi =O va -OH guruhlarini uchun sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi va ularning reaksiyadagi ishtiroki nazariy jihatdan baholandi.

Elektrod yuzasida Cu(II) ioni va pirokatexol binafshasi, Cd(II) va kadion, Zn bilan alizarin qizil S o'rtasida hosil bo'lgan komplekslarning tarkibi IQ spektroskopik tahlil bilan tasdiqlandi. Natijalar 2-4-rasmlarda keltirilgan.




2-rasm. IQ spektr natijalari: A) pirokatexin binafsha reaktivi;
B) Cu(II) ionlarining pirokatexol binafsha reaktivi bilan kompleksi

2-rasmda pirokatexol binafsha reagentidagi -OH va -C=O bog‘lanishlari uchun xarakterli cho‘qqilar 3054cm^{-1} va 1733cm^{-1} da kuzatilmaganligini ko‘rsatadi. Buning o‘rniga 543cm^{-1} cho‘qqisi paydo bo‘ldi, bu Cu-O bog‘lanishining shakllanishini ko‘rsatadi. Shuningdek, tebranish chastotalarining tabiatiga asoslanib, organik reagent ionli va donor-akseptor kimyoviy bog‘lanish hosil qilishi aniqlangan.



3-rasm. IQ spektr natijalari: A) alizarin qizil S; B) Zn ionlarining alizarin qizil S bilan kompleksi

3-rasmda alizarin qizil S reagentidagi -OH va -C=O bog‘lari uchun xarakterli spektrlar 3353cm^{-1} va 1733cm^{-1} da kuzatilmaganligini ko‘rsatadi. Buning o‘rniga, tepalik 600cm^{-1} da paydo bo‘ladi, bu Me-O bog‘lanishining shakllanishi bilan bog‘liq. Tebranish chastotalarining tabiatiga asoslanib, organik reagent ionli va donor-akseptor kimyoviy bog‘lanish hosil qilishi aniqlandi.




4-rasm. IQ spektr natijalari: A) Kadion S; B) kadmiy ionlarining kadion bilan kompleksi

Kadion reagentining IQ spektrini o‘rganishda uning funksional analitik guruxlariga mos keladigan bir nechta xarakterli chiziqlar topildi. $1644, 3076, 730, 906, 1506, 1357\text{cm}^{-1}$ sohalarda mos ravishda -C=C-, =C-H, =C-S-, =C-S-, -N=N-, -N=O guruxlariga tegishli yutilish maksimumlari kuzatilgan. (4 A-rasm)

Reagentning Cd(II) ionini bilan hosil qilgan kompleksi IQ spektri o‘rganilganda 543cm^{-1} sohada -O-Cd bog‘iga tegishli valent tebranishlar kuzatildi. Natijalardan ko‘rinib turibdiki, organik reagent metall ionini bilan muvaffaqiyatli kompleks hosil qilgan (4 B-rasm).

MES sirtidagi o‘zgarishlarni o‘rganish uchun skanerlash elektron mikroskop yordamida o‘lchovlar o‘tkazildi (5-rasm). Elektrokimyoviy sensor yuzasida Cu(II),


Cd(II) va Zn(II) ionlarining tarqalishining mikrofotosuratlarini SEM-JEOL JSM-IT200LA qurilmasi yordamida olindi.



5-rasm. MES yuzasida Cd (II), Cu (II) va Zn (II) ionlarining tarqalishining mikrofotografi ko'rsatilgan

Olingan natijalarga asoslanib, modifikatorlarni qo'shish yo'li bilan tayyorlangan MESda misning katexol binafshasi, ruxning alizarin S bilan, shuningdek kadmiyning kadionli komplekslarini hosil qiluvchi faol markazlar mavjudligi aniqlandi. Ushbu hodisa shuni ko'rsatadiki, modifikatsiya yordamida usulning selektivligi va sezgirligi bir necha darajaga oshgan.

Kadmiy ionlarini kadion bilan, misni pyrokatekin binafshasi bilan va ruxni alizarin qizil C bilan aniqlash uchun biz *ex situ* elektrodni modifikatsiyalash usulini qo'lladik. Ushbu usulda modifikatorni elektrokimyoviy sensorning yuzasiga oldindan surtish yoki uni sensorning hajmiga kiritish ishlari amalga oshiriladi. Bu yondashuv sensorni tayyorlash va o'lchovlarni o'tkazish bosqichlarini ajratishga imkon beradi, bu esa tahlil vaqtini qisqartirishga yordam beradi. Bundan tashqari, *ex situ* modifikatsiyasining qo'llanilishi sensorning ishlab chiqarish jarayonini standartlashtirishga yordam berdi, bu esa ularning metrologik xususiyatlarini yaxshiladi. Ba'zi olingan natijalar 6-8-raslarda keltirilgan.




6-rasm. Kadmiy, mis va ruxning modifikatsiyalanmagan 1-2-3 va 1'-pirokatekol binafshasi, 2'-alizarin qizili C, 3'-kadion bilan *ex situ* usulida modifikatsiyalangan ES yordamida olingan voltamperogrammalar.

Elektrodlarni modifikatsiya qilish orqali tadqiq qilingan metallarning potensialini o'zgartirishga, shuningdek, kadmiy ionini kadion bilan, misni pyrokatekin binafshasi bilan va ruxni alizarin qizili bilan aniqlashda usulning selektivligi va sezgirligini sezilarli darajada oshirishga erishildi.

ES *in situ* modifikatsiya usulini qo'llashda modifikator ES tahlil qilinayotgan eritma bilan birga kiritiladi. Ushbu usulning asosiy afzalligi shundaki, MES oldindan biriktirish talab qilinmaydi - u tahlil qilinayotgan moddaning aniqlash jarayonida MES yuzasiga yig'iladi. Biz ushbu usul bo'yicha modifikatsiyalashda


surma uchun malaxit yashil, selen uchun aminobenzidin va tellur uchun sulfat gidrazinidan foydalandik. Tajribalar natijalari 7-rasmda keltirilgan.



7-rasm. Surma, selen va tellurning modifikatsiyalanmagan 1-2-3 va 1'-malaxit yashili; 2'-aminobenzidin; 3'-gidrozin sulfat bilan *in situ* usulida MES yordamida olingan voltamperogrammlar.

ES modifikatsiya qilish ushbu metallarning potensialini musbat sohaga ko'chirish imkonini berdi, bu esa ularning voltamperometrik cho'qqilarini ajratishni yaxshiladi va o'lchovlar aniqligini oshirdi. Bundan tashqari, bu modifikatsiya natijasida eng kichik konsentratsiyalarda ham tadqiq qilingan ionlarni aniqlashda usulning selektivligi va sezgirligi oshdi, shunga ko'ra boshqa yondosh yoki halaqit beruvchi ionlardan kelib chiqadigan xato ta'sirlarini kamaytirish imkoni bo'ldi.

ES tarkibiga kiruvchi modifikatorning optimal miqdori eksperiment natijalari asosida tanlandi. Optimallashtirilgan shartlarga ko'ra, MES 0,1-0,9mg miqdorida olingan modifikatorlarni o'z ichiga oladi va 8-rasmda ushbu usulda ishlab chiqarilgan sensorlarning sinov natijalari keltirilgan.




8-rasm. ESdagi modifikator miqdorini Cd(II), Zn(II) va Cu(II) ionlarining AS bog'liqligi

Ushbu 8-rasmdagi ma'lumotlarga asoslanib, kadmiy, mis va ruxni aniqlash uchun pastdagi modifikatorlarning samarali miqdori 0,1-0,3 mg oralig'ida bo'lgan.

Tadqiq qilingan metallarning aniqlanishi uchun ishlab chiqilgan MES yordamida olingan natijalar ishonchliligi va aniqligi MES yordamida olingan natijalar bilan solishtirish orqali baholandi. Olingan natijalar, turli organik reagentlar ishtirokida Cu(II), Cd(II) va Zn ionlarining analitik signallarining takrorlanishini ko'rsatadi.

9-rasmga qaraganda, Cu(II) ionini pirokatexin binafshasi bilan, ruxni alizarin qizil S bilan, kadmiyni kation bilan aniqlashda MES yordamida olingan analitik signallarning balandligi modifikatsiyalangan sensorning barqaror xususiyatlarini ko'rsatdi. Boshqa organik reagentlar bilan ishlatilgan MES yordamida esa aniqlanadigan metallarning konsentratsiyasining o'zgarishini ko'rish mumkin.




9-rasm. Tadqiq qilingan metallarning va ESning turli modifikatorlar bilan olingan voltamperogrammalarining turg'unligi aniqlangan: a) mis uchun MES, pyrokatexin binafshasi, dietilditiokarbomat qo'rg'oshin va qahrabo kislotasi bilan modifikatsiyalangan; b) rux uchun alizarin qizil S, dition va tiomochevina bilan modifikatsiyalangan; c) kadmiy uchun ES, kation va dition bilan modifikatsiyalangan.

Pirokatexin binafshasi, alizarin S va kation modifikatorlari bilan kadmiy, mis va rux ionlarining kompleks hosil bo'lishini o'rganib bo'lgach, elektrokimyoviy usullar yordamida selen va tellurning intermetall birikmalarini o'rgandik. In situ modifikatsiyasi uchun selen(IV) 0,01 M simob nitrat eritmasi bilan ishlangan. Elektrod eritma ichiga tushirildi va simob plyonkasi shakllanishiga yordam beradigan -2000 mV kuchlanishda tayyorlangan. Keyin elektrod qo'rg'oshin nitratning 0,01 M eritmasi bo'lgan 1-yacheykaga joylashtirildi va 100 mV kuchlanish qo'llaniladi, so'ngra 2-yacheykaga kadmiy nitratning 0,01 M eritmasi bilan -700 mV kuchlanish berildi. Natijada sumob yuzasida qo'rg'oshin plyonkasi paydo bo'ldi va kadmiy ham simob bilan amalgamalari hosil bo'ldi, ular Se(IV) va Te(II) iz miqdorini aniqlash uchun ishlatilgan. Seleni aniqlash uchun modifikatsiyalangan Pb/Hg/ES, tellurni aniqlash uchun esa Cd/Hg/ESdan foydalanilgan. Modifikatsiya jarayonining mexanizmi 1-sxemada, Se(IV) va Te(II) kationlarini IV aniqlashning natijalari 10-11 rasmlarda keltirilgan.



1-Sxema. ESning metall ionlari bilan o'zaro ta'siri jarayoni




10-rasm. Rux ioni ishtirokida selen(IV) aniqlashning voltamperometrik egri chiziqdagi: modifikatsiyalanmagan ESda selen(IV)ni aniqlash (a) va modifikatsiyalangan Pb/Hg/ES selenni aniqlash(b).

Se(IV)ning nolgacha elektrokimyoviy qaytarilishi voltamperogrammada cho'qqining paydo bo'lishi bilan sodir bo'ladi, uning balandligi funksional jihatdan tahlil qilinadigan eritmadagi selen(IV) konsentratsiyasi bilan bog'liq (2-sxema).




2-Sxema. Pb/Hg/ES sirtida selenni elektroqaytarilish jarayoni

Tajribalar shuni ko'rsatdiki, Hg/Pb/ESdan foydalanish selen aniqlashining sezgirligini va tezligini oshiradi (10-rasm). Shu bilan birga, Hg/Pb/ES tellurni aniqlash uchun mos emas, chunki unda tellurni AS kuzatilmadi, buni tellurning Hg/Pb/ES yomon eruvchanligi bilan tushuntiriladi. Taxmin qilish mumkinki, Hg/Pb/ES sirtida simobning bunday kichik miqdori tellur amalgamasining hosil bo'lishi uchun yetarli emas. Tellurni aniqlash uchun Cd/Hg/ES ishlatildi, elektroqaytarilish jarayoni 3-sxemada keltirildi.



3-Sxema. Cd/Hg/ES sirtida tellurni elektroqaytarilish jarayoni




11-rasm. Modifikatsiyalangan Cd/Hg/ES bilan tellurni rux ioni ishtirokida aniqlashning voltamperometrik egri chiziqlari

Tellur elektrod sirtida qaytariladi, kadmiy esa oksidlanadi, ikkita cho'qqi hosil qiladi, bu cho'qqilardan tellurning nanokonsentratsiyasini aniqlash mumkin.

Mis va kadmiyning elektrodda to'liq ajralishiga ta'sir qiladigan optimal potentsiallari va modifikatsiya qilish vaqti va unda cho'qqi shakllarining buzilishiga hamda ishonchsiz va shubhali natijalarga olib kelmaydigan intermetallik birikmalar hosil bo'lishi o'rganildi. Qo'rg'oshin uchun eng yaxshi modifikatsiya natijalari -100 mV va kadmiy uchun -700 mV, ES yuzasiga yig'ilish vaqti qo'rg'oshin uchun 30 s., kadmiy uchun esa 25 s.

Pb/Hg/ES va Cd/Hg/ES sirtida selen va tellurning elektrod jarayonlari mexanizmini o'rganish uchun yarim to'lqin potentsiali, elektronlar soni aniqlandi. Buning uchun selen va tellurning turli konsentratsiyalari to'lqin balandligining logarifmik qiymatlarining kuchlanishga bog'liqlik grafigidan yarim to'lqin potentsiali va elektrodda ishtirok etayotgan elektronlar soni topildi, olingan ma'lumotlar 12-rasmda ko'rsatilgan.




12-rasm. Lingveyn tenglamasi bo'yicha selen va tellurni elektroqaytarilishining hisoblash grafigi

12-rasmdan ko'rinib turibdiki, seleni aniqlashda ajralib chiqqan elektronlar soni 2 ga teng, bu selenning oksidlanish holatidan +4 dan 0 ga qisqarganligini tasdiqlaydi. Qo'rg'oshin 4 ta elektron beradi, tellur uchun esa elektronlar soni 1 ga teng., bu tellur kadmiydan ikkita elektronni qabul qilishini ko'rsatadi. Selen uchun yarim to'lqin potentsiali -600 mV, tellur uchun esa -400 mV. Optimal fon elektrolitidan foydalanganda yarim to'lqin potentsiali musbat tomonga siljiydi, bu esa selektivlikning 10 martagacha oshishiga olib keladi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bo'limi «Modifikatsiyalangan elektrokimyoviy sensor bilan kadmiy, mis, sink, surma, selen va tellur ionlarini inversion-voltamperometrik aniqlash usullarining maqbul sharoitlarini tanlash»ga bag'ishlangan bo'lib, unda asosiy e'tibor fon elektrolitining tabiati va konsentratsiyasi, shuningdek, bufer eritmasining ta'siri orqali aniqlanadigan ionlarning AS o'zgarishiga qaratilgan. Ma'lumki, fon, bufer eritmalarining tabiati va konsentratsiyalari o'rganilgan metallarning AS larini hosil bo'lishiga ta'sir qiluvchi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Izlanishlar natijasida fon elektroliti va bufer eritmasining yetarli darajada yuqori bo'lmagan konsentratsiyasida o'rganilayotgan eritmaning qarshiligi katta bo'lib ketgani, bu esa o'rganilayotgan sistemada kuchlanishning katta ortishiga sabab bo'ldi va bu aniqlanayotgan ionlarini AIV aniqlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Boshqa tomondan, ularning haddan ortiq yuqori konsentratsiyasi ham ijobiy natija bermadi, sababi o'rganilayotgan eritmaning katta ion kuchi ta'sirida fon elektrolitlarining va bufer eritmalarining dissotsiatsiya konstantalari sezilarli kamayishi natijasida voltamperogramma cho'qqilari shakli yomonlashdi, hamda tegishli ravishda aniqlanayotgan ionlarining AIV aniqlanishining aniqligi kamayadi. Shunday qilib, aniqlanayotgan ionlarning voltamperogramma cho'qqilari yaxshi natija berishi uchun fon elektrolitining (bufer eritmalarining) qulay va mumkin bo'lgan konsentratsiyalari tanlanishi kerak.

Quyidagi 13-rasmdan ko'rishimiz mumkinki, Cu(II) ionini 1,4 M KNO_3 , Zn uchun 1,0 M KCl , Se(IV) uchun 0,7 M CH_3COONa , Te(II) uchun 0,8 M $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$, Cd(II) uchun 1,0 M NH_4Cl , Sb(V) uchun 0,3 M H_3PO_4 fonida aniqlashda eng yaxshi natijalar kuzatilgan va shuning uchun qolgan barcha tadqiqotlar ushbu fon elektrolitlarida, o'rnatilgan qulay konsentratsiyalariga tegishli ravishda, amalga oshirilgan.




13-rasm. Cu(II), Cd(II), Zn, Se(IV) va Te(II) AIV aniqlashda turli tabiatli fon elektrolitlarining ta'siri.

pH muhitining o'zgarishi, ishlatilgan bufer eritmalarning kislotasos xususiyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatdi, bu esa voltamperometrik piklarning shakli va balandligiga ta'sir qildi. Tadqiq qilinayotgan metallarning eng yaxshi natijalari universal bufer eritmasi yordamida olingan bo'lib, u barqaror pH darajasini ta'minlab, yondosh reaksiyalarning ta'sirini minimal darajaga tushirdi. Ushbu fon eritmalarida Cd(II), Sb(V), Se(IV), Te(II), Cu(II) va Zn ionlari uchun diffuzion toklarining maksimal qiymatlari kuzatildi, bu esa usulning yuqori sezgirligini tasdiqlaydi. Olingan natijalar 14-rasmda keltirilgan.

Elektrodlarga ex situ usulida organik reagentlarni modifikatsiyalashdan hosil qilingan elektrod bilan metal ionlarini aniqlashda bufer eritmalarning qo'llanilishi vodorod ionini reagentlarni faol holatga o'tkazishi, adsorbsion modifikatsiyalash usulida esa Pb/Hg/ES va Cd/Hg/ES qatlamli sensorlarning selen va tellur ionlarini aniqlashda fon elektroltlarni qo'llash eritmaning qarshiligini kamaytirishi hamda

metallarning intermetallik xossasini oshirishi ion kuchi ta'sirida borish qonuniyatiga mos kelishi aniqlangan.




14-rasm. Cd(II), Se(IV), Te(II), Sb(V), Cu(II) va Zn ionlarini AIV aniqlashda universal bufer aralashmasining har xil pH qiymatlarini analitik signalga ta'siri.

14-rasmda ko'rsatilganidek, eng yaxshi analitik signallar universal bufer eritmasi yordamida quyidagi sharoitlarda kuzatildi: Cd(II) uchun pH=10-11; Sb(V) uchun pH=4-6; Cu(II) uchun pH=5-6; Se(IV) uchun pH=4-5; Te(IV) uchun pH=5-6; Zn uchun pH=4,0-5,0.

Ma'lumki, AIV da elektrodda elektrofaol moddaning (aniqlanayotgan metall) to'planish vaqti ham anod va katod cho'qqilarining balandligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan omillardan biridir.

Tadqiq qilingan metallarning IV aniqlanish sezgirlikini oshirish uchun bir qancha usullar mavjud: tok diapazonini kamaytirish, qo'llanilayotgan qurilmaning o'zi tomonidan beriladigan potentsiallar oralig'ini o'zgartirish, elektrodda aniqlanuvchi metall ionlarining to'planadigan vaqtini oshirish, analiz qilinayotgan eritmaning haroratini oshirish yoki kamaytirish va boshqa omillar orqali. Boshidagi ikki parametrlarni ishlatishning samarasi ishda qo'llaniladigan qurulma tuzilishiga bog'liq bo'lsa, analitik signal qiymatiga depolyarizatorning to'planish vaqtining ta'siri esa aniqlanayotgan metallning tabiati va konsentratsiyasiga bog'liq bo'ladi. 15-rasmda olingan natijalar keltirilgan.



15-rasm. Ionlarni aniqlashda konsentratsiya va differensial tokining vaqtga bog'liqligi: $5 \cdot 10^{-7}$ M. 1- Se(IV); 2-Te(VI); 3-Cd(II); 4-Sb(V); 5-Sb(III); $6 \cdot 10^{-5}$ M 1'- Se(IV); 2'-Te(VI); 3'-Cd(II); 4'-Sb(V); 5'-Sb(III)

15-rasmdan ko'rinib turibdiki, Cu ionini to'plash uchun optimal vaqt 190 s, Se(IV) uchun 150 s, Te(II) uchun 180 s, Sb(V) uchun 140 s, Zn va Cd uchun esa 160 s ni tashkil etadi. Chunki elektroliz vaqtining keyingi ortishi cho'qqilarning balandligini va ularning to'planish funksiyasini oshira olmaydi, natijada bu miqdor doimiy qiymatga aylanadi. Shuning uchun uni yanada oshirish maqsadga muvofiq emas.

Tadqiq qilinayotgan namunadagi komponentlarni aniqlash uchun AIV usullarida tok diapazoni (t.d.) va AC orasidagi nisbat asosiy shartlarni belgilaydi. Cd(II), Sb(IV), Te(II), Se(IV), Cu(II) va Zn uchun optimal sistemaga beriladigan tok kuchi oralig'i 1,0-5,0 mA bo'ldi.

Cd(II), Sb(IV), Te(II), Se(IV), Cu(II) va Zn ionlarini muvaffaqiyatli IV aniqlash uchun analiz qilinayotgan eritmaning temperaturasini tadqiq qilinayotgan metallar analitik signalga ta'sirini o'rganish kerak. Tajribalar shuni ko'rsatdiki, haroratning 25-35°C oralig'ida voltamperometrik egrilarning (cho'qqilarning) eng yaxshi natijalari kuzatildi, sababi uning kichik qiymatlarida tadqiq qilinayotgan eritmaning tok o'tkazuvchanligi Cd(II), Sb(IV), Te(II), Se(IV), Cu(II) va Zn ionlarini aniqlash uchun yetarli bo'lmaydi, haroratning yuqorilarida esa MES sezilarsiz erishi kuzatiladi va tegishli ravishda uning ishchi yuzasi yomonlashadi,

hamda egrilarning (cho‘qqilarning) shakli o‘zgaradi, shuningdek IV aniqlash ham yomonlashadi.

Ishlab chiqilgan usulning to‘g‘riligi va qayta takrorlanuvchanligini tekshirish maqsadida aniqlanayotgan ionlarni turli miqdorlarda individual eritmalaridan AIV aniqlashlar amalga oshirildi. Olingan natijalar quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Metallarni turli miqdorlarda individual eritmalarida IV aniqlash natijalari

Kiritildi Me, mkg		Topildi Me, mkg (P=0,95;)	S	Sr
Cu(II)	0,4	0,44 ±0,06	0,055	0,124
	1,0	1,05 ±0,13	0,112	0,106
	2	2,08 ±0,21	0,179	0,086
	4	4,14 ±0,36	0,313	0,076
Cd(II)	3,0	3,20 ±0,51	0,447	0,140
	6,0	5,80 ±0,51	0,447	0,077
	12,0	11,64±0,93	0,805	0,069
	24,0	24,60±0,94	0,822	0,033
Sb(III)	2,0	1,80 ±0,51	0,447	0,248
	4,0	2,80 ±0,96	0,837	0,299
	8,0	7,60 ±0,63	0,548	0,072
	16,0	16,60±1,03	0,894	0,054
Te(IV)	5	4,70 ±0,77	0,671	0,143
	10	10,90±1,03	0,894	0,082
	20	19,40±1,03	0,894	0,046
	40	39,30±1,14	0,990	0,025
Se(IV)	7,0	7,40 ±1,03	0,894	0,121
	14,0	14,40±1,03	0,894	0,062
	28,0	27,80±0,96	0,837	0,030
	56,0	50,38±0,98	0,850	0,017

Tajriba ma’lumotlari asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, pirokatexin binafshasi, kadion, malahit yashili, gidrazin sulfat, aminobenzidin bilan MES lar yordamida Cu(II), Cd(II), Sb(V), Te(II), Se(IV) ionlari IV aniqlashning to‘g‘ri, hamda qayta takrorlanuvchanlikka ega natijalar olingan, bundan tashqari korrelyatsiya koeffitsiyenti 1 ga yaqinligi usulning to‘g‘riligidan dalolat beradi.

Model aralashmalar yaratishga asos bo‘lib Cu(II), Cd(II), Sb(V), Te(II), Se(IV) ionlarini aniqlashda begona va yondosh kationlarning ta’siri bo‘yicha natijalar xizmat qildi. Model birlamchi, ikkilamchi va undanda murakkabroq aralashmalarning tahlil natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

Olingan natijalardan ko‘rinib turibdiki, real tabiat obyektlari va oqava suvlarga taqlid qiluvchi murakkab model aralashmalarda aniqlanayotgan ionlarini AIV usulida aniqlash mumkinligini, ayniqsa barcha holatlarda nisbiy standart chetlanish (S_r) 0,193 dan oshmadi, bundan ko‘rinib turibdiki, ishlab chiqilgan yuqori aniqlikka ega.

